

AMIR TEMUR HARBIY SAN'ATIINI CHET EL MANBALARIDA

Mamajonov Soyibjon Halilovich

Farg'ona Davlat Universiteti harbiy ta'lim fakulteti maxsus tayyorgarlik sikli dotsenti.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Amir Temur harbiy san'atiini chet el manbalarida o'r ganilishi xaqida qisqa yoritilgan. Ushbu maqola Oliy va O'rta maxsus ta'lim muassasalari talabalariga harbiy san'at sirlari bilan yaqindan tanishish uchun mo'ljallangan.*

Kalit so'zlar: *Jahon tarixshunosligi, Fransuz temurshunoslik maktabi, To'xtamishxon, Oq o'rda, Lyusyen Keren, Rui Gonzales de Klavixo, Dashti Qipchoq, Samarqand, Mo'g'uliston, ibn Arabshox.*

Аннотация: В данной статье кратко освещено изучение военного искусства Амира Темура в зарубежных источниках. Данная статья предназначена студентам высших и средних специальных учебных заведений для ознакомления с секретами военного искусства.

Ключевые слова: мировая историография, французская школа темурологии, Тохтамыш-хан, Белая Орда, Люсъен Керен, Руй Гонсалес де Клавихо, Дашиби Кипчак, Самарканد, Монголия, Ибн Арабшаҳ.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-iyundagi 267-sonli qarorining 2- bobida ko'rsatilgan yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy vazifalaridan kelib chiqib, ulug' ajdodlarimizning boy ma'naviy merosi, Amir Temurni jahon sivilizatsiyasi hamda harbiy san'at rivojiga qo'shgan hissasini yoshlar o'rtaida keng targ'ib etish maqsadida ushbu maqolani yozishga qaror qildim.

Amir Temur va temuriylar davlati tarixi jahon tarixshunosligida eng ko'p o'r ganilgan, bugungi kunda ham qiziqish yuqori bo'lgan mavzulardan biridir. Turli mamlakatlar moziyshunoslari tomonidan Amir Temur tarixiga bag'ishlangan ko'plab asar yaratilgan bo'lsa, ularning salmoqli qismi fransuz temurshunoslari tegishli ekanligi e'tiborga molik. Fransiyada alohida temurshunoslik maktabining shakllanganligi ham bu mamlakatda Amir Temur tarixiga qiziqish yuqori ekanligini ko'rsatadi. Fransuz temurshunoslik maktabining yirik namoyondalaridan biri Lyusyen Keren bo'ladi. Lyusyen Keren o'z asarini yozishda ko'plab tarixiy manbalarga tayangan bo'lsa-da, asosan Sharafiddin Ali Yazdiyning —Zafarnoma va Ibn Arabshohning —Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur asarlaridan hamda Kastiliya elchisi Rui Gonzales de Klavixo kundaliklaridan foydalanganligini o'zi ham alohida ta'kidlaydi.

Muallif To'xtamishxonning Amir Temurdan yordam so'rab kelishi, Movarounnahr hukmdorining unga yordam berish uchun yetarli mablag' va kuchni ajratishi haqida so'z yuritar ekan, Sohibqironning asl maqsadlari

borasida quyidagi fikrlarni bildirgan: —Bu bilan u Oq o'rda birligiga tagidan putur yetkazishni mo'ljallagan edi. V.V.Bartold, A.Y.Yakubovskiy kabi olimlar ham shunga yaqin fikr bildirganligi ham Kerening ushbu mulohazasining ilmiy qiymatini ko'rsatib beradi.

Shuningdek, L. Keren Amir Temur va To‘xtamishxon o‘rtasidagi nizolarning rivojlanib borish jarayoniga ham juda to‘g‘ri baho bera olgan. U To‘xtamishxonning Ozarbayjonga qilgan yurishlariga nisbatan Amir Temurning o‘ta bosiqlik bilan munosabatda bo‘lishi, unga qarshi jazo yurishlarini amalga oshirmaganligi sabablari haqida ham qimmatli fikrlar bildirgan. —Ulug‘ Amirning, - deydi L. Keren, - Eronda qiladigan ishi ko‘p bo‘lib, Oltin O‘rda ustiga yurish qilishga vaqt hali erta edi. U dastlab shu o‘lkada boshlangan ishlarni nihoyasiga yetkazishni va shundan keyingina eski tanishining xom xayollariga butunlay barham berishga qaror qildi. Kereningning ushbu fikrlari tarixchi olimlardan N.Karamzin, A.Y. Yakubovskiyarning mazkur masala bo‘yicha bildirgan xulosalariga hamohangligi bilan ham e’tiborlidir.

Muallif Amir Temurning Eronda bo‘lganligidan foydalaniib, 1387-88 yillari Oltin O‘rda qo‘sishlari tomonidan Xorazm va Mo‘g‘uliston lashkarlari bilan birgalikda Movarounnahrga qilingan bosqinlar masalalarini qisqacha yoritar ekan, 1388, 1389 va 1390 yillarda Sohibqiron tomonidan To‘xtamishxonni jazolash uchun Dashti Qipchoqqa yurish qilmaganligining sabablarini ham ilmiy asoslab bergan. L. Kereningning fikricha, Oltin O‘rdanining ittifoqdoshlari bo‘lmish Xorazm va Mo‘g‘ulistonni tor-mor keltirmasdan avval olis Volga bo‘yiga yurish qilish juda xatarli edi. Bu haqda u —Temur uning izidan quvib borolmasdi, zero, mo‘g‘ulistonlik to‘dalar Amir qo‘sishlarining orqa qismlariga hujum qilishlari, uni yenggan chog‘larida esa Temurning Samarqand bilan aloqasini uzib qo‘yishlari mumkin edi, deb yozadi.

Lyusyen Kereningning Amir Temur sultanati nomli asari Samarcand tarixi bilan boshlanib, Amir Temurning dunyoga kelishidan umrining oxirigacha bosib o‘tgan hayot yo‘lini qamrab oladi. Unda sohibqiron barpo etgan saltanatning keyingi taqdiri hamda Boburning hayotiga alohida boblar ajratilgan. Buyuk bobokalonimizning Yevropa qirollari bilan o‘rnatgan munosabatlari haqidagi qimmatli ma’lumotlar ham ilova qilingan.

Lyusyen Keren ushbu asarida Amir Temurning Mo‘g‘uliston va Sharqiy Turkiston hududiga qilgan yurishi haqida ham alohida to‘xtalib o‘tgan: -Dastlab Qamariddin bilan hisoblashishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan

Ulug‘ amir Mo‘g‘ulistonning kattagina qismini egallab oldi, deb ta‘kidlab o‘tadi. Muallif shu bilan birgalikda Mo‘g‘ulistonning yirik amirlaridan biri Qamariddin bilan xon Xizrxo‘janing o‘zaro munosabati buzilganligini, bu esa Amir Temurga qo‘l kelganligini juda to‘g‘ri ta‘kidlab o‘tadi: -Chingizzon avlodidan, biroq musulmon bo‘lmish Xizrxo‘ja vatandoshi Qamariddin ta‘qibidan qochib, shu yerlarga kelib qolgan, uyg‘ur qabilalarini majburan islom diniga kiritib, o‘z qo‘sishlarini ilmiy qiymati yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Bu mavzuni asosi bo‘lgan 1391 yil Qunduzcha jangida Amir Temur tomonidan qo‘llanilgan harbiy taktikani Muallif ham tarixiy manbalar asosida tadqiq etgan. Temur tuzuklaridan malumki Amir Temur jangga kirishdan avval joyni hususiyatini o‘rganib chiqgan va o‘z qo‘sishin saf tortish uchun qulay sharoit yaratib o‘z qaroridan kelib chiqib jangovar tatibini har safar o‘zgacha joylashtirgan. Amir Temur o‘z qo‘sishini butunlay yangicha joylashtirib, - deb yozadi L.Keren, - O‘rda lashkarboshilarini hayratda qoldirdi: u qo‘sishini yettita mustaqil qismiga - favjga bo‘ldi, ulardan biriga o‘zi qo‘mondorlik qilar va bu favj jangda ishtirok etmay, balki uni kuzatib turardi - qayerdanki ahvol tanglashsa, favj shu zahoti o‘sha yoqqa yetib borishi lozim edi. L.Kereningning ushbu xulosalarini muarrix Sharafiddin Ali Yazdiyning —Zafarnoma asaridagi ma’lumotlari ham tasdiqlaydi.

A.Temur davlatida voqealarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan mualliflar asarlari muhim ma’lumotlarga boydir. Ana shunday asarlardan biri A.Temur davlatiga (1403) Ispaniyadan elchi bo‘lib kelgan Run Gonsalis Klavixonning «Kundalik» asaridir. Mazkur asar bиринчи мarta 1582 yilda Seviye shaxrida «Ulug‘ Tamerlan» nomi bilan, so‘ngra 1782 yili Madridda «Ulug‘ Tamerlan hayoti va faoliyati» nomi bilan nashr qilingan. Bu asar keyinchalik ham to‘liq yoki ayrim parchalar holida ingliz va boshqa tillarda bosilgan. 1943 yili Klavixo kundaligining yangi Madriddagi nashrini F. Lopez amalga oshirdi. Nashr asosiga u XV asr qo‘lyozmasini oldi, lekin u asar matnni chuqur adabiy-ilmiy tekshiruvdan o‘tkazdi va kundalikni A.Temur davlatidagi Klavixo elchixonasi haqidagi tarixiy ma’lumotlar bilan to‘ldirdi. «Kundalik» matnining rus tiliga bиринчи tarjimasi akademik I.I.Sreznevskiy tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu matnni sharxlashda ko‘zga ko‘ringan sharqshunoslar V.V. Gregorev, P.I. Lerx, K.P. Patkanovlar qatnashgan. Tarjima 1881 yilda, Sreznevskiyning vafotidan so‘ng nashr qilindi. Eng yangi, aniq va mukammal tarjimani, yangilangan va to‘ldirilgan sharhi bilan I.S. Mirkov amalga oshirdi. Tarjima 1990 yilda Moskvada nashr qilindi. Klavixo o‘z «sayoxatnomasi»da A.Temur tarjimai xoliga oid shuningdek, A.Temur davlatidagi xalqlarning turmushi, ma’daniyati, shaharlardagi binolar, savdo joylari, bozorlar va ulardagi mahsulotlar tarkibi, bayramlar, to‘ylar, umuman nimaiki ko‘rgan bo‘lsa hammasini yozgan. Shuningdek, u xalq ichida yurgan mish-mish, afsonalarni ma’lumot sifatida keltirgan.

To‘liqligi va qiziqarligi jihatidan suriyalik ibn Arabshoxning (1392-1450) asari ham muhim ahamiyatga egadir. U o‘zining «Ajoyib al-Maqdur fi tarixi Taymur» asarida Amir Temurning to‘liq tarixini yaratishga harakat qilgan. Ibn Arabshox o‘z ona shahrini Amir Temur tomonidan bosib olinishining guvohi bo‘lishi bilan birga, asir sifatida Samarqandga olib kelinadi. Bu esa ibn Arabshoxning A.Temurga nisbatan adovat ko‘zi bilan qarashiga olib kelgan. Bu narsa uning asaridan yaqqol ko‘rinib turadi. Ibn Arabshox A.Temur davrining so‘ngi yillarini guvohi bo‘lgan. U o‘z asarida A.Temurning qoralashga qanchalik harakat qilmasin, baribir uning shaxsiga yuqori baxo beradi. Ibn Arabshox asarida boshqa hech qaysi manbalarda uchramaydigan ma’lumotlar mavjud. Jumladan,

A.Temurning tug‘ilgan yili, joyi uning asarida aniq ko‘rsatilib berilgan.

Ibn Arabshox asari o‘zbek tiliga tarjima qilinib, 1991-1992 yillarda 2 jidda nashr etildi. A.Temur davrini yoritishda yuqoridagi manbalardan boshqa yana ko‘plab asarlar mavjud. Lekin ularning aksariyati yuqoridagi ma’lumotlarni qaytargan yoki izox bildirganlar, xolos.

Hulosi qilib aytish joizki o‘rta davrning buyuk sarkardasi Amir Temurning harbiy san’ati bugungi kunda harbiyalarimiz tamonidan chuqur o‘rganib kelinmoqda. Uning qo‘shindagi o‘rnatgan metindek intizom va jang maydonida qo‘sishlar o‘rtasidagi hamkarlikni puhta ishlab chiqarilgani barchamiz uchun o‘rnak hisoblanadi.